

## O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI VA FISKAL SIYOSATNING O'ZARO BOG'LIQLIGI TAHLILI

**Imamova Gulshan**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi  
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari  
va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi  
ORCID: 0009-0006-8825-7346  
[gulshanimamova1211@gmail.com](mailto:gulshanimamova1211@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda kambag'allik darajasi, davlat xarajatlari va jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlar asosida trend tahlil amalga oshirildi hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan qiyosiy tahlil o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy yo'naltirilgan fiskal siyosat kambag'allik darajasini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, fiskal siyosatning samaradorligi davlat xarajatlarining tarkibi va yo'naltirilishiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan samarali iqtisodiy siyosat choralari ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** kambag'allik, fiskal siyosat, davlat xarajatlari, YAIM, iqtisodiy o'sish, daromadlar tengsizligi, Markaziy Osiyo.

## АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ УРОВНЯ БЕДНОСТИ И ФИСКАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Имамова Гульшан**

Научно-исследовательский центр  
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»  
при Ташкентском государственном экономическом университете

**Аннотация.** В данной статье анализируется взаимосвязь между уровнем бедности, государственными расходами и валовым внутренним продуктом на душу населения в Узбекистане. В ходе исследования на основе статистических данных проведён трендовый анализ, а также сравнительный анализ со странами Центральной Азии. Полученные результаты показывают, что экономический рост и социально ориентированная фискальная политика являются важными факторами снижения уровня бедности. В то же время установлено, что эффективность фискальной политики зависит от структуры и направленности государственных расходов. Результаты исследования имеют важное значение для разработки эффективных экономических мер, направленных на сокращение бедности.

**Ключевые слова:** бедность, фискальная политика, государственные расходы, ВВП, экономический рост, неравенство доходов, Центральная Азия.

## ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN POVERTY AND FISCAL POLICY IN UZBEKISTAN

**Imamova Gulshan**

*Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article analyzes the relationship between poverty levels, government expenditures, and GDP per capita in Uzbekistan. The study applies trend analysis based on statistical data and conducts a comparative analysis with Central Asian countries. The results show that economic growth and socially oriented fiscal policy are important factors in reducing poverty. At the same time, it is found that the effectiveness of fiscal policy depends on the structure and allocation of government expenditures. The findings are important for developing effective economic policy measures aimed at poverty reduction.*

**Keywords:** *poverty, fiscal policy, government expenditure, GDP per capita, economic growth, income inequality, Central Asia*

### **Kirish.**

So'nggi yillarda dunyo miqyosida kambag'allik va daromadlar tengsizligi muammolari iqtisodiy siyosatning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu muammolar nafaqat ijtimoiy barqarorlikka, balki iqtisodiy o'sish sur'atlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, World Bank ma'lumotlariga ko'ra, kambag'allikni kamaytirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi (World Bank, 2024).

Mazkur sharoitda davlat tomonidan olib borilayotgan fiskal siyosat muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xarajatlari, soliq siyosati va ijtimoiy himoya mexanizmlari orqali daromadlarni qayta taqsimlash kambag'allik darajasini pasaytirishda muhim vosita hisoblanadi (Musgrave, 1959; Stiglitz, 2015). Shu bilan birga, jon boshiga yalpi ichki mahsulot darajasi ham aholi farovonligining muhim ko'rsatkichi sifatida qaraladi va uning o'sishi kambag'allikni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat natijasida kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, kambag'allik darajasi yildan-yilga kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu davlat siyosatining ijtimoiy samaradorligini ko'rsatadi.

Shuningdek, mintaqaviy taqqoslashlar orqali turli mamlakatlarda kambag'allik darajasining shakllanish omillarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar, fiskal siyosat samaradorligi va ijtimoiy himoya tizimlaridagi farqlar kambag'allik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Empirik tadqiqotlar jon boshiga YAIM aholi farovonligi va iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichi ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat va xizmatlar sektorini rivojlantirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Hududlar kesimida YAIM va daromadlar o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'lib, rivojlangan hududlarda daromadlar yuqoriroq, kam rivojlangan hududlarda esa pastroqdir. Shu bois hududiy tafovutlarni kamaytirish uchun kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb etish muhimdir (Salimov, 2026).

Kambag'allik va daromadlar tengsizligiga fiskal hamda monetar siyosatlarning ta'siri iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida olib borilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat xarajatlari, soliq tushumlari, pul massasi va foiz

stavkalari daromadlar taqsimotiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Xususan, fiskal siyosat vositalari ayrim holatlarda tengsizlikni kamaytirsa, ayrim hollarda uni kuchaytirishi mumkin (Azam, Khan va Ibrahim, 2024).

Fiskal siyosatning samaradorligi uning tarkibiga bog'liq. Empirik natijalarga ko'ra, davlat xarajatlari va soliq tushumlari uzoq muddatda daromadlar tengsizligini oshirishi mumkin, biroq qisqa muddatda bu ta'sir har doim ham sezilarli emas. Shu bilan birga, ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlar, xususan ta'lim va sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'lar kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi (Agussalim va b., 2024).

Tadqiqotlar davlat budjeti mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlashda nazorat mexanizmlarining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy dasturlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois zamonaviy yondashuvlar, xususan riskka asoslangan nazorat, raqamli monitoring tizimlari hamda sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan foydalanish nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi (Karataev, 2026).

Monetar siyosatning ta'siri esa yanada murakkab bo'lib, pul massasining kengayishi tengsizlikni oshirishi, real foiz stavkalari esa uni kamaytirishi mumkin. Biroq ushbu ta'sir mamlakatlar kesimida va vaqt oralig'ida farqlanadi (Azam, Khan va Ibrahim, 2024).

Ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan davlat xarajatlari ham muhim omil hisoblanadi. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday xarajatlar iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va bandlikni oshiradi, shuningdek ayrim hududlarda gender tengligini yaxshilashga xizmat qiladi (Reljic va Zezza, 2025).

Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimi daromadlar tengsizligini kamaytirishda muhim vosita bo'lsa-da, uning haddan tashqari kengayishi iqtisodiy rag'batlarni pasaytirishi mumkin. Yevropa davlatlari misolida olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy xarajatlar tarkibi va hajmi mamlakatlar kesimida sezilarli farq qilishini ko'rsatadi (Piekut va Rybaltowicz, 2024).

Fiskal siyosatning iqtisodiy shoklar davridagi roli ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, COVID-19 davrida davlat xarajatlari va soliq choralari oshirilishi qisqa muddatda ishsizlikni kamaytirgan bo'lsa-da, davlat qarzining ortishi uzoq muddatda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin (Auntu va Pilinkiene, 2026).

Empirik tadqiqotlar soliq ma'murchiligini takomillashtirishda soliq yukini to'g'ri baholash, soliq tushumlarini barqaror ta'minlash va soliq risklarini kamaytirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, soliq tizimini raqamlashtirish va maqsadli yondashuvlarni joriy etish soliq siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (Normurzayev, 2026).

Bundan tashqari, soliq tizimi tuzilishi daromadlar tengsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Empirik natijalarga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri soliqlar tengsizlikni kamaytirsa, bilvosita soliqlarga yuqori darajada tayanish aksincha natija berishi mumkin (Fernandes va b., 2025).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda kambag'allik darajasi, davlat xarajatlari hamda jon boshiga yalpi ichki mahsulot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari hamda ilmiy maqolalar tashkil etadi. Tahlil uchun 2018-2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Trend tahlil usuli – asosiy ko'rsatkichlarning vaqt davomida o'zgarish dinamikasini aniqlash uchun;

Qiyosiy (taqqoslash) tahlil – O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini Markaziy Osiyo davlatlari bilan solishtirish uchun;

Grafik va jadval usuli – ma‘lumotlarni vizual shaklda ifodalash va tahlil natijalarini aniq ko‘rsatish uchun;

Tahliliy va mantiqiy umumlashtirish usuli – olingan natijalar asosida xulosalar chiqarish uchun.

### **Tahlil va natijalar muhkamasi.**

Mazkur tadqiqotda fiskal va monetar siyosatning daromadlar tengsizligi hamda kambag‘allik darajasiga ta‘siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, davlat xarajatlari, soliq siyosati va boshqa makroiqtisodiy omillarning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘siri o‘rganiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, fiskal siyosat vositalari iqtisodiy jarayonlarga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan, davlat xarajatlarining oshishi qisqa muddatda iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirsa-da, uning daromadlar tengsizligiga ta‘siri har doim ham ijobiy bo‘lavermaydi. Ayrim holatlarda noto‘g‘ri yo‘naltirilgan xarajatlar daromadlar tafovutini yanada kuchaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, soliq siyosati ham muhim rol o‘ynaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, progressiv soliq tizimi daromadlar tengsizligini kamaytirishga xizmat qilsa, bilvosita soliqlarga yuqori darajada tayanish ijtimoiy tafovutni kuchaytiradi.

Makroiqtisodiy omillar, jumladan iqtisodiy o‘shish, inflyatsiya va moliyaviy rivojlanish ham daromadlar taqsimotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy o‘shish umumiy farovonlikni oshirishi mumkin, biroq uning samarasidan barcha qatlamlar bir xil darajada foydalana olmaydi. Shu sababli inklyuziv o‘shishni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fiskal va monetar siyosatning daromadlar taqsimotiga ta‘siri bir yoqlama emas, balki murakkab va ko‘p omilli xarakterga ega. Nazariy jihatdan fiskal siyosat tengsizlikni kamaytiruvchi vosita sifatida qaralsa-da, amaliyotda uning samaradorligi ko‘p jihatdan davlat xarajatlarining yo‘naltirilishi, soliqlar tarkibi hamda institutsional muhitga bog‘liq bo‘ladi. Xususan, noto‘g‘ri yo‘naltirilgan ijtimoiy xarajatlar yoki bilvosita soliqlarning yuqori ulushi daromadlar tengsizligini kamaytirish imkoniyatini cheklashi mumkin.


Monetar siyosat ham daromadlar taqsimotiga bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi. Pul massasining kengayishi iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi bilan birga, ayrim hollarda yuqori daromadli qatlamlarga ko‘proq foyda keltirishi mumkin. Shu bois monetar siyosatning ta‘siri turli iqtisodiy sharoitlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy o‘shish har doim ham inklyuziv natijalarni ta‘minlamaydi. Agar iqtisodiy o‘shish natijalari aholining barcha qatlamlariga teng taqsimlanmasa, u holda daromadlar tafovuti saqlanib qoladi yoki kuchayadi. Shu sababli fiskal siyosat orqali qayta taqsimlash mexanizmlarini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat xarajatlari, ayniqsa ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalariga yo‘naltirilgan mablag‘lar, uzoq muddatda inson kapitalini rivojlantirish orqali kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq bunday xarajatlarning samaradorligi ularning maqsadli yo‘naltirilishi va boshqaruv sifatiga bog‘liqdir.

Shuningdek, soliq tizimining tuzilishi ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Progressiv, ya‘ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarga asoslangan tizim daromadlar tengsizligini kamaytirishga xizmat qilsa, bilvosita soliqlarning ustunligi aksincha natija berishi mumkin.

Quyidagi rasmda O‘zbekistonda 2018–2025-yillar davomida kambag‘allik darajasi, davlat xarajatlari (YAIMga nisbatan foizda) hamda jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlarining dinamikasi keltirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatda iqtisodiy o‘shish, fiskal siyosat va aholi farovonligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish imkonini beradi.

Grafik ma‘lumotlari asosida ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari hamda ularning bir-biriga ta‘siri baholanadi.




**1-rasm. O'zbekistonda kambag'allik darajasi, davlat xarajatlari va jon boshiga YAİM dinamikasi (2018-2025)**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilgan davrda kambag'allik darajasi umumiy pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2021-yilda kambag'allik darajasi nisbatan yuqori darajaga ko'tarilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda izchil kamayib, 2025-yilga kelib sezilarli darajada pasaygan.

Davlat xarajatlarining YAİMga nisbatan ulushi esa tahlil davrida ma'lum darajada barqaror bo'lib, ayrim yillarda oshish va kamayish holatlari kuzatilgan. Bu esa fiskal siyosatning iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda moslashib borayotganligini ko'rsatadi.

Jon boshiga YAİM ko'rsatkichi esa butun davr davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Bu holat mamlakatda iqtisodiy o'sishning davom etayotganligini anglatadi. Shuningdek, grafik tahlil shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish (YAİM jon boshiga) ortib borishi bilan kambag'allik darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlik o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.



**2-rasm. Markaziy Osiyo davlatlarida kambag'allik darajasi foizda**

**Manba:** Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mintaqaviy kesimda kambag'allik darajasidagi farqlarni aniqlash maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida taqqoslash amalga oshirildi. Ushbu taqqoslash orqali turli mamlakatlarda kambag'allik darajasining holati va ular o'rtasidagi tafovutlar tahlil qilinadi.

Mintaqaviy taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston va O'zbekistonda kambag'allik darajasi nisbatan past bo'lib, mos ravishda 5.2 va 5.8 foizni tashkil etadi. Ushbu holat mazkur davlatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligi, daromadlar darajasining yuqoriligi hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarining nisbatan samarali yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi.

Aksincha, Qirg'iziston va Tojikistonda kambag'allik darajasi 25 foizdan yuqori bo'lib, bu ushbu mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi, mehnat bozori muammolari hamda institutsional omillar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, mintaqadagi bunday tafovutlar fiskal siyosat samaradorligi, davlat xarajatlarining tarkibi va iqtisodiy diversifikatsiya darajasiga ham bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlash mumkin.

### Xulosa va takliflar.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tahlil davrida iqtisodiy o'sish barqaror ijobiy tendensiyaga ega bo'lib, bu kambag'allik darajasining pasayishiga xizmat qilgan. Shuningdek, davlat xarajatlarining YAIMga nisbatan ulushi nisbatan barqaror bo'lib, fiskal siyosatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Biroq, tahlillar davlat xarajatlarining o'zgarishi har doim ham kambag'allik darajasining kamayishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emasligini ko'rsatdi. Bu esa fiskal siyosat samaradorligi uning hajmiga emas, balki tarkibi va yo'naltirilishiga ham bog'liq ekanligini anglatadi.

Mintaqaviy taqqoslash natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda kambag'allik darajasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida o'rtacha darajada bo'lib, Qozog'istonga yaqin, ammo Qirg'iziston va Tojikistonga nisbatan ancha past ko'rsatkichni tashkil etadi. Bu holat mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalarini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

davlat xarajatlarini yanada samarali taqsimlash, ayniqsa ijtimoiy yo'naltirilgan sohalarga (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya) ustuvorlik berish;

kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni kengaytirish va ularning manzilliligini oshirish;

iqtisodiy o'sishni inklyuziv shaklda rivojlantirish, ya'ni barcha aholi qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish;

fiskal siyosatni monetar siyosat bilan muvofiqlashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;

mehnat bozorini rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi daromadlarini oshirish.

Umuman olganda, kambag'allikni kamaytirishda iqtisodiy o'sish muhim omil bo'lsa-da, uning samaradorligi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli va muvozanatli fiskal siyosat bilan chambarchas bog'liqdir.

### Adabiyotlar/Jumepamyra/References:

Agussalim, A., Nursini, N., Suhab, S., Kurniawan, R., Samir, S. va Tawakkal, T. (2024) *The path to poverty reduction: How do economic growth and fiscal policy influence poverty through inequality in Indonesia? Economies*, 12(316).

Auntu, S.K. va Pilinkiene, V. (2026) *Impact of fiscal policies on unemployment in economic shock conditions: Panel data analysis. Journal of Risk and Financial Management*, 19(42).

Azam, M., Khan, Z. va Ibrahim, Y. (2024) *Analyzing the impact of fiscal and monetary policies on income distribution in Central Asian economies. Journal of Central Banking Theory and Practice*, 3, pp. 109–140.

Byrialsen, M.R. (2026) *Military spending, financing, and fiscal sustainability: The universal welfare state under pressure?* *Journal of Post Keynesian Economics*, 49(1), pp. 85–127.

Chellai, F. (2025) *Regime-dependent effects of public spending in Algeria: A structural VAR and Markov-switching approach.* *Journal of Economic Sciences: Theory and Practice*, 82(2), pp. 32–60.

Diler, H.G., Barın, N.E., Özen, E. va Grima, S. (2026) *Social security transfers and fiscal sustainability in Turkey: Evidence from 1984–2024.* *Econometrics*, 14(7).

Fernandes, C.B.S., Vasconcelos, M.R., Cunha, M.S. va Obst, T. (2025) *The relationship between tax structures and income inequality.*

Karataev, M. (2026) *Davlat byudjeti mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlashda nazorat mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari.* *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, pp. 200–206.

Normurzayev, U. (2026) *O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirishda yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi faoliyati tahlili va ularning yechimlari.* *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, pp. 247–257.

Piekut, M. va Rybaltowicz, J. (2024) *Comparative study of government expenditure on social protection in the Visegrád Group and Benelux.* *Economics and Sociology*, 17(1), pp. 280–294.

Reljic, J. va Zezza, F. (2025) *Breaking the divide: Can public spending on social infrastructure boost female employment in Italy?* *Economic Modelling*.

Salimov, B. (2026) *YaIM tarkibini takomillashtirish, hududiy yalpi ichki mahsulotning hududiy aholi daromadlariga ta'siri.* *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, pp. 73–80.

World Bank (2024) *World Development Indicators.*